

Sooner or later they will have to realize that this is a blind Alley and that they need to Rethink their own Strategies. Sooner or later, they must realize that they are at an impasse and reconsider their strategies.

EXPRESSIONS WITH NUMERIC COMPONENTS CONNECTED BY THE UNION "AND".

The combination "cheap and tasty", consisting of even numbers, is used to denote cheap and quantitative, "cheap and disgusting" - to denote something of poor quality and inexpensive. In oral and written speech, a number of expressions with an even number of words are widely used, such as (Bright-Eyed and Bushy-tailed, Hale and hearty, rough and ready, far and wide).

Conclusion

In the course of the study, numerical phraseological units in English and Uzbek were identified and analyzed morphologically, semantically and linguoculturally. The analysis shows that despite the fact that the English and Uzbek nationalities differ from each other, the meanings of expressions made up of numbers are very close to each other. Most of them serve to describe the qualities or shortcomings of a person in both languages. The linguistic and cultural content of idiomatic expressions selected from the English and Uzbek languages was justified.

REFERENCES:

1. Humboldt V. Background. Yazik I philosophical culture. M-1985
2. Saidragimova N., Kabulova U. Linguoculturology - a separate branch of linguistics // Uzbek language and literature, 2015. - No. 4. - B. 87-91.
3. Safarov S. Semantics. - Tashkent: State Scientific Publishing House "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2013; Khudoiberganova D.S. Anthropocentric interpretation of a literary text in the Uzbek language: philol. nauka. d-ri. ... diss. - Tashkent, 2015; Mahmudov N. Linguistic picture of the world and the development of the word // Uzbek language and literature. - Tashkent, 2015. - No. 3. - B. 3-12; Mahmudov N. In search of ways to perfect language learning ... // Uzbek language and literature. - Tashkent, 2012. - No. 5. - B. 3-16; Usmanova Sh. Linguistic and cultural aspects of translation. - Tashkent: Toshds'hi, 2017. - 254 P.
4. Rakhmatullaev Sh. Explanatory Phraseological dictionary of the Uzbek language. 5. Abdugaffor Mamatov Professor "analysis of phraseological units: a linguoculturological approach."
6. Abdugaffor Mamatov Professor "analysis of phraseological units: a linguoculturological approach."
7. Uncle Murad. "A horse in handcuffs in the evening" 8. Oxford Dictionary of Idioms. P. 52
9. You Wang " A contrastive Research on the Definitions and Categories of Chinese and English Idioms." Advances in Socience, educational and Humanities Research, Volume 554.
10. Richard A. Spears. Ph.D. ntc's American idioms dictionary.

**QONUNIY NIKOHDA BO'LMAGAN OTA-ONADAN TUG'ILGAN BOLAGA OTALIK
BELGILASH TARTIBI**

Zulfizar Sayfiyeva

*Buxoro viloyat g'ijduvon tuman
Fhdyo bo'limi 1-toifali inspektori.*

Annotatsiya: Nikohda bo'lmagan ota-onadan tug'ilgan bolaga otalikni belgilash ota va onasi (agar otasi voyaga yetmagan hisoblansa, u holda qonuniy vakili) tomonidan birgalikda berilgan arizasi yoki sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida FHDYO organida amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: onalik va bolalik, otaliq tartibi, aliment, huhuq , qonun.

KIRISH

O'zbekistonda azaldan oila muqaddas sanalib, uni vatan ichidagi vatanga qiyoslashadi. Bilamizki oilada ota-onaning o'rni o'ziga xos xususiyatga ega. O'zbek halqi bolajon xalq bo'lib, ota-onalar o'z farzandlarini ruhiy, ma'naviy hamda axloqiy jihatdan kamol topishida o'z xissalarini qo'shadilar. Mamlakatimizda azal-azaldan bolalarning ruhiy, aqliy va jismoniy tarbiyasiga ahamiyat berilib, ularni komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berib kelingan. Bugungi kunda ham yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'lom avlodni kamol toptirish maqsadida barcha zarur sharoitlar yaratilmoqa. Bunda o'sib kelayotgan avlod haqida g'amxo'rlik qilish va ular uchun farovon hayotni barpo etishga yo'naltirilgan ijtimoiy dasturlar ustuvorligiga katta ahamiyat berilmoqda. Albatta, millatimiz kelajagi bo'lgan farzandlarimizning ruhiy dunyosi, ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom va barkamol inson bo'lishi uchun muntazam qayg'urishimiz lozim.

ASOSIY QISM.

Oilada ota-onalik hamda bolalar o'rtasidagi munosabatlar, ularning oqilona tartibi va nisbatini saqlash, ota-onalarning bolalar tarbiyasini yuksak insoniy fazilatlar asosida amalga oshirishlariga erishish, oilada bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash jamiyat taraqqiyotining har bir davrida dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Albatta, atrofimizda notinch, nosog'lom muhit hukmron bo'lgan, «ota-onalik farzand» munosabatlaridagi eng zarur mezonlar ham buzilayotgan oilalarning mavjudligi bu borada o'z yechimini kutib turgan muammolar talaygina ekanligini ko'rsatmoqda. Shu ma'noda tadbirda "Otaliqni belgilash, o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan to'g'ilgan bolalarning huquq va majburiyatları" mavzusi bo'yicha qonunchilik va sud amaliyoti borasida to'xtalib o'tildi.

— Jamiyatda nikohsiz yoki sha'riy nikoh asosida farzandlar tug'ilishi holatlari ko'plab uchrayotgani hech kimga sir emas. Oilalarning 61-moddasiga ko'ra, bolaning onasi

bilan nikohda bo'Imagan shaxsning otaligi o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi. Yani, bu holatda bolaning nikohda bo'Imagan ota-onasi o'rtasida otalik belgilanishi haqida hech qanday nizo mavjud bo'lmaydi va FXDYO organiga ariza birgalikda topshirilishi natijasida bolaga otalik belgilanadi, - deydi sudyja.

Xo'sh, otalikning sud tartibida belgilanishi qanday tartibda amalga oshiriladi? Bu kabi qator savollarga ham atroficha javoblar berildi.

— Bunda bolaning onasi tomonidan yoki vasiy, xomiylar tomonidan agarda bola voyaga yetgan bo'lsa uning o'zi tomonidan sudlarga berilgan arizaga ko'ra otalik belgilanishi mumkin. Shuni nazarda tutish lozimki, qonunda otalikni belgilash to'g'risidagi nizolarni hal etish chog'ida sud e'tiborga olishi zarur bo'lgan muayyan shartlar belgilangan. Bu shartlar quyidagilardir:

bolaning onasi va javobgarning bola tug'ilishiga qadar birgalikda yashaganliklari va umumiy ro'zg'or yuritganliklari;

bolaning onasi va javobgar bolani birgalikda tarbiya qilganliklari yoki ta'minlab turganliklari;

javobgar otalikni tan olganligini ishonchli tasdiqlovchi boshqa dalillar mavjudligi.

Javobgarning bolaning onasi bilan birgalikda yashaganliklari va umumiy ro'zg'or yuritganliklari oilaviy munosabatlarga xos bo'lgan holatlar (homila paydo bo'lgan vaqtida va bola tug'ilgunga qadar bitta turar joyda yashash, umumiy byudjet yuritish, birgalikda ovqatlanish, o'zaro g'amxo'rlik, umumiy foydalanish uchun mol-mulk sotib olish va h.k.lar) mavjudligi bilan tasdiqlanadi.

Taraflar birgalikda yashashganmi va umumiy ro'zg'or yuritishganmi, degan masalani hal etishda sud alohida olingen har bir holda ishning muayyan holatlaridan va taraflar hayotining ob'ektiv shart-sharoitlaridan kelib chiqishi lozim.

Bola tug'ilgunga qadar taraflar o'rtasida bunday munosabatlarning tugatilishi, o'z-o'zidan, otalikni belgilash to'g'risidagi da'veoni rad etish uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi, ular homiladorlik boshlangunga qadar tugatilgan hollar bundan mustasno.

Bolani birgalikda tarbiya qilish bolaning onasi va javobgar bilan birga yashaganligida yoki javobgarning bola bilan munosabatga kirishib, unga nisbatan otalarcha g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatganligida namoyon bo'ladi.

Bolaning birgalikda ta'minlab turilishi deganda, bola onasi va javobgarning qaramog'ida bo'lganligi yoki javobgar tomonidan bola ta'minoti uchun muttasil yordam ko'rsatilib kelinganligi, bunday yordam miqdoridan qat'i nazar, tushunilishi lozim.

FPK 80-moddasiga muvofiq sud-tibbiy ekspertizasi, odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi xulosalari isbotlash vositalaridan biri hisoblanadi va shu sababli ular ish bo'yicha to'plangan boshqa dalillar majmui bo'yicha baholanishi lozim.

Bolaning onasi bilan nikohda bo'Imagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkin.

Otalikni belgilash to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin sud shu qaror nusxasini bola tug'ilganligi ro'yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboradi.

Oila kodeksining 64-moddasiga ko'ra, bolaga otalik belgilanganda, qonuniy nikoh asosida tug'ilgan bola bilan bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Nikohda bo'limgan ota-onadan tug'ilgan bolaga otalikni belgilash ota va onasi (agar otasi voyaga etmagan hisoblansa, u holda qonuniy vakili) tomonidan birgalikda berilgan arizasi yoki sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida FHDYO organida amalga oshiriladi.

Otalikni belgilash ariza berilgan kuni ota-onasining ishtirokida amalga oshiriladi. Otalikni ishonch nomaga bo'yicha belgilashga yo'l qo'yilmaydi. Oilaviy nizolarga nikohdan ajratish, nikohni haqiqiy emas deb topish, aliment undirish, ota-ona ta'minoti uchun farzandidan pul undirish, bola yashash joyini yoki bola bilan ko'rishib turish tartibini belgilash, bolani tarbiyaga olish, otalikni belgilash, ota-onalik huquqidan maxrum qilish, otalikka e'tiroz bildirish, shuningdek oila nizolari bilan bog'liq boshqa nizolar kiradi.

Shu nizolar ichida otalikni belgilash va aliment undirish nizolariga e'tibor qattiq qaratiladi. Otalikni belgilash nizosi kelib chiqishiga er-xotinning oila qonunchiligiga rioya qilmasligi, nikohlarini FXDYO bo'limlarida qayd qildirmasdan farzandli bo'lishlari, er tarafning otalikni belgilash haqida FXDYO bo'limiga ariza berishga bormasligi sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 13-moddasiga ko'ra, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Yil yakunlari bo'yicha tahlillar, umumlashtiruvlar shuni ko'rsatayaptiki, fuqarolarning diniy rasm-rusumlar, ya'ni sha'riy nikoh asosida oila qurishlari holati hamon uchrab turibdi. Shuningdek, otalikni belgilatish haqidagi da'vo talablari sudlarda birmuncha oshganligi tashvishlidir.

Nikohning qonuniy rasmiylashtirilmasligi bolanining otasi deb hisoblanayotgan otaning FXDYO organiga borib, otalikni belgilatish haqida ariza bermasligi, ba'zi hollarda bunga shaxsini tasdiqlaydigan hujjati yo'qligini vaj qilishi yoki bolani tan olmasligi bu toifadagi ishlarning sudlargacha yetib kelishiga sabab bo'ladi.

O'zaro nikohda bo'limgan ota-onadan bola tug'ilgan taqdirda, otalik ota-onaning birgalikdagi FXDYO organiga bergen arizasi asosida, agar ota FXDYO organiga ariza bermasa, otalik onaning o'zining arizasiga asosan sud tartibida belgilanadi.

Otalikni sud tartibida belgilash ota-onadpn birining yoki bolpning vasiysi(homiysi)ning yoxud bola kimning qaramog'ida bo'lsa, shu shaxsning arizasiga, shuningdek bola voyaga yetganidan keyin uning o'zi bergen arizaga asosan ham amalga oshiriladi.

Shar'iy nikohdan o'tishning oqibatlari boshqa nizolarni, xususan aliment undirish, ba'zi hollarda esa mol-mulkni undirish nizolarni ham keltirib chiqaradi.